



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

# Vaziyat

2024-yil  
5-dekabr  
№ 49 (990)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqqa boshlagan

## MUHIM O'QUV MASHQI



Toshkent viloyatida Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev boshchiligidagi qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari o'tkazildi.

Dastlab viloyat mexanizatsiyalashtirilgan yig'ma otryadining saf ko'rigi o'tkazilgan bo'lsa, keyin FVDT xizmatlarining kuch hamda vositalari ko'zdan kechirildi.



Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yirik avariya-larning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini samarali tashkil etish ishlarini jadallashtirish zarurligi qayd etildi. Aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda talafotlarning oldini olish, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining xizmat faoliyatlarini yanada takomillashtirish zarurligi e'tirof etildi. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yirik avariya-larning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini samarali tashkil yetish bo'yicha amaliy harakatlar sinovdan o'tkazildi.

Qolaversa, jarayonda aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talafotlarning oldini olish va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining qutqaruv ishlarini bajarish, fuqaro muhofazasi sohasida tayyorgarligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarning bajarishda moddiy-texnik ta'minot masalalarini hal etish borasida zarur fikrlar bayon etildi.

Mahalla fuqarolar yig'inlarida, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga elektr energiyasi, gaz resurslarini yetkazib berishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholini yuzaga kelgan vaziyatlardan xabardor etish, jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, aholini xavfsiz hududlarga tezkorlik bilan ko'chirish ishlarini tashkillashtirish va ularga to'g'ri harakat qilishni o'rgatishga bo'yicha tavsiyalar berildi. Toshqin suvlari va sel oqimlarining xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor va yer ko'chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo'yicha vazifalar muhokama qilindi. Mutasaddilarga aholini va hududlarni toshqinlar, sel oqimlari va ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berildi hamda ustuvor vazifalar belgilab olindi.



Odamlar ko'p yig'iladigan savdo markazlari va ijtimoiy-iqtisodiy soha obektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini samarali tashkil etishga qaratilgan muhim topshiriqlar berildi. Sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, avariya-tiklash bo'linmalarining tayyorgarligi va boshqa muhim jihatlarni e'tiborga olish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



## MARD INSON

Polkovnik Sharipov Ismoil Mahamad-zikirovich 1971-yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan, ma'lumoti oliy, 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi IIV Yong'indan saqlash oliy texnik maktabi (hozirgi FVV Akademiya-si) ni tamomlagan.

Dastlabki xizmat faoliyatini 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi IIV YOXB tizimida, ya'ni Toshkent shahar, Yashnabod tumanini muhofaza qiluvchi 7-harbiylashtirilgan yong'indan saqlash birikmasi 26-bo'ysunuvchi harbiylashtirilgan o't o'chirish qismi qorovul boshlig'i sifatida boshlagan. Xizmat pillapoyalaridan ko'tarilib, 2018-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi YOXB boshlig'ining 1-o'rinbosari lavozimiga cha bo'lgan sharaflil yo'lni bosib o'tgan. FVV tizimidagi xizmat faoliyatini esa 2020-yil yanvardan boshlagan.

Salkam besh yildirki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi boshlig'i lavozimida samarali xizmat qilib kelmoqda.

"Mardlik ordeni" sohibi.

Mard insonlarning sadag'asi ketsang arziydi. Men yuz-ko'zidan nur yog'ilib turgan, vujudida g'ayrat-shijoat aks etgan bu yigitni FVV tizimiga ishga kelganidanoq, ishning ko'zini biladigan, fidoyi inson, yaxshi mutaxassis ekanligini sezganman. Ha, bunday oliyjanob, munosib xulqqa ega bo'lgan kishilar hamisha elning nazarida, ardog'ida bo'lishadi. Qalbi toza, vijdoni uyg'oq bo'lgani bois, yoru do'stlari, hamkasblari uning cheksiz jo'mardligi, xizmatdagi qat'iyatligi uchun hurmat qilishadi.

Darhaqiqat, qahramonimiz – polkovnik Sharipov Ismoil Mahamad-zikirovich xizmat faoliyati mobaynida o'zining intizomli, tirishqoqligini namoyon qilib, o'ziga yuklatilgan sharaflil va mas'uliyatli vazifalarni vaqtda bajarib, O'zbekiston Respublikasida sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda.

So'nggi salkam besh yillik xizmati davomida vazirligimiz tomonidan tashkil etilgan bir qator muhofaza tadbirlarida hamda qo'mondonlik-shtab va taktik-maxsus o'quv mashqlarida a'lo darajada faol ishtirok etmoqda. Bunga misollar bir talay. Xususan, 2019-yilning 28-avgust kuni Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nurafshon ko'chasidagi qurilish konstruksiyasining qulashi oqibatlarini bartaraf qilish maqsadida polkovnik I.Sharipov boshchiligidagi YOXB Respublika ixtisoslashtirilgan otryad shaxsiy tarkibiga boshchilik qilib, faol ishtirok etib jonbozlik ko'rsatgan. Shu yilning 18-dekabr kuni Toshkent shahar, Yunusobod tumani "Megaplanet" yonida yangi qurilayotgan metro bekatidagi avariya YOXB Respublika ixtisoslashtirilgan otryad shaxsiy tarkibi bilan faol ishtirok etganini alohida ta'kidlash joiz.

Davomi 5-sahifada.

## HUQUQIY HUJJAT

1992-yilning bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 ta moddadan iborat yangi tahriri ishlab chiqildi va u 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko'lamli bo'lib, yuksak ijodiy ko'tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o'tdi. U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo'ldi. Asosiy Qomusimiz mustaqilligimizning mevasi, mahsuli sifatida dunyoga keldi. 1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishga xizmat qilayotganligi tahsinga sazovor. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiya O'zbekiston uchun hayotiy zarurat bo'lib, bu mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamdir.

Yangi Konstitutsiyadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya'ni Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" jumlasini Yangilangan Konstitutsiyamizda "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" degan norma mustahkamlandi. Yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, O'zbekistonda huquqiy davlat tamoyili mustahkamlandi, endilikda barcha jayronlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

**Bahodir XUDOYBERDIYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi katta o'qituvchisi, adliya katta maslahatchisi.

## DAVRA SUHBATI

**Toshkent viloyati FVB shaxsiy xavfsizlik bo'limi tomonidan Chinoz tumani FV bo'limi harbiy xizmatchi va xizmatchilari bilan "Korrupsiya – illat, unga qarshi kurashishga barchamiz birdek mas'ulmiz" mavzusida tadbir tashkil etildi.**

So'zga chiqqanlar yurtimizda bo'layotgan islohotlar, o'zgarishlar hamda yaratilayotgan keng imkoniyatlar xususida so'z yuritishdi. Mavzu yuzasidan prokuratura va ichki ishlar bo'limi xodimlari sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlar xususi-

da shaxsiy tarkibga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib, arzimagan pul mablag' evaziga uzoq muddatga oila a'zolaridan hamda yaqinlaridan yiroqda bo'layotganliklarini qo'shimcha qilib o'tdilar.

Suhbat erkin va ochiq muloqot tarzida bo'lib, ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar.

**Temur ERALIYEV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.

**Azizbek QO'SHAQOV,**  
bo'lim boshlig'i o'rinbosari, mayor.

## "IMTIYOZLI UY OLIB BERAMAN..."

Sudda D.K. ismli ayolning jinoyat ishi ko'rib chiqildi. Bu ayol poytaxtimizda joylashgan "Chilonzor buyum bozor"ida ishlovchi G.M.ni hokimiyatdagi ishlovchi tanishlari orqali Yangihayot tumanida qurilayotgan uylardan 3 xonali xonadonni imtiyozli kredit asosida olib beraman, deb aldagan. Va shu kunning o'zida boshlang'ich to'lov, deya 2.000 AQSH dollarini firibgarlik yo'li bilan olgan. U kadastr hujjatlari uchun pul zarur ekan, deb yana 12.600.000 so'm olgan. Biroq va'dasini bajarmagan. Pullarni esa o'z ehtiyojlari uchun ishlatgan.

Bundan tashqari, D.K. shu bozordagi N.N.ni ham 3 xonali xonadonni imtiyozli kredit asosida hokimiyatda ishlovchi tanishlari orqali olib berishga ishontirgan. Undan ham 2.000 dollari va 12.800.000 so'm pul olgan.

Shuningdek, D.K. yana bir ayolni chuv tushurgan. U S.I. ismli ayolga 2 xonali xonadonni imtiyoz asosida olib berishni va'da qilib, undan ham 2.000 AQSH dollarini firibgarlik yo'li bilan

qo'lga kiritgan. Oradan ma'lum vaqt o'tgach undan yana 25.000.000 so'm, so'ng esa 14.800.000 so'mni aldov yo'li bilan olgan.

D.K. xuddi shu usulda A.B.ni ham aldagan. Undan ham 2 xonali xonadon uchun boshlang'ich to'lov uchun deb 2.200 AQSH dollarini olgan. Ammo va'dani unutkan.

Sudlanuvchi D.K. aybiga iqror bo'lib, qilgan ishidan pushaymonligini bildirdi. U yetkazilgan zarar uchun 3.000 dollarini jabrlanuvchilarga qaytarib berganligini, qolgan zararlarni qoplay olmasligini, aybini tushunib yetganligini, qonuniy yengillik berishni so'rab ko'rsatma berdi.

Sud ayolga jazo tayinlashda barcha jihatlarini e'tiborga oldi. D.K. 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Aldoqchi ayol bugun jazo muddatini o'tamoqda.

**Zavqiddin YARASHYEV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod tuman sudining sudyasi.

## KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ



Tarixan qisqa davr ichida mamlakatda qonuniylik va huquq tartibotni ta'minlashning institutsional va huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimi yaratildi. Mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amal-

ga oshirishda milliy qonunlarga, xalqaro huquqiy umume'tirof etilgan normalarni singdirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Qashqadaryo viloyati FVBda ham shu mavzularga oid seminar tashkil etildi.

Unda ma'ruzachilar tomonidan korrupsiya va poraxo'rlik harom luqma ekanligi, korrupsiyaga qarshi barcha tuzilmalarda yangicha tizim, jumladan, ichki nazoratni tashkil etish va uni amalga oshirish bo'yicha har bir tashkilotda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar alohida ta'kidlab o'tildi.

**T.TURAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB SHXB boshlig'i, podpolkovnik.

## "OCHIQ ESHIKLAR" KUNI

**Buxoro viloyati FVBda "Aksikorrupsiya oyligi" doirasida "Yoshlarga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik" mavzusida "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi. Tadbirda Buxoro harbiy prokurori, Milliy gvardiya boshqarmalari rahbarlari taklif etildi.**

Tashrif buyurganlar tomonidan korrupsiya illatidan ogoh bo'lish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, sohada shaxsiy manfaatni davlat manfaatidan ustun qo'ymaslik masalalari yuzasidan ma'ruza qilindi. FVV tizimida yo'l qo'yilgan korrupsiyon holatlar, ularning ayanchli oqibatlari to'g'risida shaxsiy tarkibga ma'lumotlar berildi. O'z o'rnida bunday holatlarning oldini olish boshqarma shaxsiy tarkibining ma'naviy salohiyatini oshirish, Vatanga

ga sadoqat hissini kuchaytirish, oilaviy xotirjamlikni yuksaltirish borasidagi tadbirlar samarasini oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Tadbinning amaliy qismida viloyat FVBda yong'in-qutqaruv va boshqa harbiy texnikalar namoyishi tashkil etildi.

**SH.TURSUNOV,**  
Buxoro viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

## ANJUMAN

**Namangan viloyati FVB tomonidan "Aksikorrupsiya oyligi" doirasida matbuot anjumani va "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazildi.**

Anjumanda OAV xodimlari, jumalist va blogerlar hamda sohaga aloqador vakillar ishtirok etdilar. Unda qish-qirovli kunlarning betalafot o'tishi uchun boshqarma tomonidan belgilangan chora-tadbirlar yuzasidan ma'lumot berildi. Shuningdek, muloqotda jamiyat kushandasi bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxsiy tarkib o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga asosiy e'tibor qaratilgani ta'kidlandi.

Tadbir Namangan shahar FV bo'limida davom ettirilib, kuni ishtirokchilar hamda 1-umumta'lim maktabi o'quvchilarida katta taassurot qoldirdi. Jayronlarda ular yong'in-qutqaruv ekipaji xodimlarining jangovar tayyorgarligi, qutqaruv asbob-anjomlarining shayligi bilan yaqindan tanishdilar.

So'ng qatnashchilar va o'quvchilar boshqarmada tashkil etilgan muzeyga sayohat qildilar.

**O'tkirbek KALONOV,**  
Namangan viloyati FVB SHXB xodimi, podpolkovnik.

## MUHIM UCHRASHUV

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati Aksiyadorlik jamiyati va "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazida "Aksikorrupsiya oyligi" doirasida profilaktik tadbir tashkil etildi.**

Unda Uchquduq va Zarafshon shahrida Navoiy harbiy prokuraturasida, viloyat FVB mas'ul xodimlari, "NK-MK" AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi xodimlari hamda Uchquduq tumani FV bo'limi shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.

Uchrashuvda Navoiy harbiy prokuraturasi hamda viloyat FVB mas'ul xodimlari sohaga taalluqli ma'ruzalari bilan qatnashib, har-

biy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mazmun-mohiyati, shaxsiy tarkibning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma'lumotlar va xarbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar, kelib chiqish sabablari, uning oqibatlari, hamda oldini olish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar haqida ma'lumotlar berib o'tdilar.

**Ixtiyor JUMAYEV,**  
NKMK AJ va "Navoiyuran" DKOY-OXTTE markazi guruh boshlig'i, podpolkovnik.

**Ma'rufjon HAYITOV,**  
markaz xodimi, katta serjant.

## HARBIY VATANPARVARLIK

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bu – millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitusion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari, boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Harbiy-vatanparvarlik usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan iborat.

Ishontirish – mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma'naviy-ma'rifiy ishlarining rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda:  
– ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

– boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lishgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

– ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

– to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

– jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish;

– teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar va elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

– urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

– harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish kabi tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

**Mirzatlilla MIRAHMEDOV,**  
*O'zbekiston Kurolli Kuchlari akademiyasi dotsenti, podpolkovnik.*

## MA'NAVYIY-MARIFIY TAYYORGARLIK

Qashqadaryo viloyati FVB rahbariyati ishtirokida barcha shahar va tuman FV bo'limlari, gidrometrologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatish xizmati, obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'lim hamda bo'linmalari ishtirokida "Zoom" platformasi orqali 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun "Bayrog'imiz faxrimiz!" mavzusida ma'naviy-marifiy tayyorgarlik dars mashg'uloti bo'lib o'tdi.

Mashg'ulotda boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i podpolkovnik



M.Ostonov bayroqning ahamiyati, dastlab dunyo davlatlarining bayroqlari kelib chiqish tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar xususida to'xtalib o'tdi.

**Sohibjon VAITOV,**  
*Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati boshlig'i, mayor.*

## OGOHO BO'LAYLIK

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida aholi turar joylari, korxonalar va tashkilotlar, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oliy o'quv yurtlari, maxsus maktab internatlari, davolash muassasalari hamda yangi qurilayotgan bino va inshootlarning yong'inga qarshi holatlari tekshirilib chiqilmoqda.

Olib borilayotgan targ'ibot va tashviqot ishlariga qaramasdan aholi turar joylarida

yong'in xavfsizligi qoidalari-ga rioya qilmasligi oqibatida ko'plab ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lmoqda. Shu kabi hodisalar bo'lmasligi uchun har birimiz har doim hushyorlikni oshirib, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishda mas'uliyatimizni oshiraylik.

**A.SOIBNAZAROV,**  
*Toshkent shahar FVB Tezkor boshqaruv markazi FVMvaTX katta ofitseri, katta leytenant.*

## BUYUK KELAJAK KAFOLATI

Namangan viloyati FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tomonidan "Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati va poydevori. Kitobxonlikni yurt kelajagidagi ahamiyati" mavzusida ma'naviyat va ma'rifat mashg'uloti o'tkazildi.



Unda yoshlarni ma'naviy, har tomonlama yetuk va intellektual jihatdan tarbiyalash uchun o'qishni ommalashtirish, kitobga muhabbatni kuchaytirish zarurligi aytiladi. Kitob maslahatchi,

sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanishi, farzandlar tarbiyasida uning o'zni juda muhim ekanligi qayd etildi. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash

imkonligi, jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasi bo'lganligi e'tirof etildi. Shu bois, yurtimizda aholining

kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Shundan so'ng, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi "Afg'on shamoli" serial-romani muallifi Isoqjon Nishonovning fikr-mulohazalari tinglandi.

**Qahramon SATTAROV,**  
*Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.*

## MUAMMOLARNI BARTARAF ETAYLIK

Yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni yanada kuchaytirish maqsadida Yashnobod tumanida bir qator ishlar amalga oshirilmogda, jumladan, barcha turkumdagi obyektlarda, ayniqsa, ko'p qavatli uylar va yakka tartibdagi uy-joylar, bozor, yirik savdo majmualari va aholi ko'p to'planadigan boshqa obyekt-

larda keng qamrovli profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari amalga oshirilmoqda. Mahallalarda xonadonbay tartibida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntir-

ish va targ'ibot ishlari yanada kuchaytirilmoqda. Tunda odamlar qoladigan maskanlarga, "Mehribonlik uylari", "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida muntazam ravishda ko'riklar o'tkazilmoqda.

**Sh.SADENOV,**  
*Yashnobod tumani FV bo'limi nazorat va profilaktika inspektori.*

## MASHG'ULOT


Sirdaryo viloyati FVB boshlig'i polkovnik Gulomjon Muxamedov rahbarligida "Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati va poydevori. Kitobxonlikni yurt kelajagidagi ahamiyati" mavzusida ma'naviy-marifiy tayyorgarlik mashg'uloti o'tkazildi.

Boshqarma va uning quyi tizimlari harbiy xizmatchilari va xizmatchilari bilan "ZOOM" platformasi orqali o'tkazilgan ushbu mashg'ulotda kitobni kam o'qishning salbiy oqibatlari, jumladan, kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni

teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish ko'nikmalari to'liq shakllanmasligi alohida ta'kidlandi.

**Alisher ADBUJALILOV,**  
*Sirdaryo viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.*  
**Davronbek SULAYMONOV,**  
*boshqarma axborot xizmati boshlig'i, kapitan*

## YOSHLAR TAQDIRLANDI



Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida, "Bayrog'imiz-faxrimiz!" mavzusida navbatdagi ma'naviyat va ma'rifat soati o'tkazildi.

O'tkazilgan mashg'ulotda boshqarma va uning hududiy bo'limlari harbiy xizmatchilari va xizmatchilari shaxsiy tarki-

bi "ZOOM" platformasi orqali ishtirok etdilar.

Ma'rifat soatida boshqarma boshlig'i tomonidan shaxsiy tarkibga yurtimiz hamda jahonda ro'y berayotgan yangiliklar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar berildi. Tadbir davomida boshqarma tizimidagi bir guruh iqtidorli faol yosh harbiy xizmatchilar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Asomiddin IKROMOV,**  
*Navoiy viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.*

## HAMKORLIKDA

Mirobod tumanida joylashgan 83-umumta'lim maktabida BMTning "UNICEF" fond tashkiloti, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti professor-o'qituvchilari, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda Qizil Yirim Oy jamiyati organlari mutaxassislari va ko'ngilli yoshlar ishtirokida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Shu bilan bir qatorda, "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida ham amaliy o'quv-seminarlari tashkil-lashtirildi. Tadbir davomida in-

dividual shaxsiy himoya vositalari (gazniqob)dan foydalanish, yong'inlarni o'chirish (kukunli o't o'chirish yordamida), jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish (zambil yordamida) ishlari amalga oshirildi. Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish tartibi va usullari bo'yicha sanitar postlar harakatlari va sport musobaqasi tayyorgarliklari bajarildi.

**G.XIDIRBAYEVA,**  
*loyiha assistenti HFXO'M o'qituvchisi, xizmatchi.*  
**O.Rahimov,**  
*boshqarma xarbiy xizmatchisi, katta serjant.*

## KIM JAVOGBAR?

Namangan shahar FV bo'limi 3-yong'in-qutqaruv qismi shaxsiy tarkibi tomonidan Yangi Namangan tumanidagi yong'inga qarshi yerosti suv olgichlari va yong'inga qarshi suv hovuzlari holati o'rganildi.

O'rganishlar davomida esa bir nechta gidrantlarning qarovsiz va nosoz ho-

latdaligi, ba'zilari yo'l qoplamalari ostida qolib ketganligi aniqlandi. Tuman hududida 25 ta MFYlar bo'lib, hududda 96 ta gidrantlar mavjud. Shundan 24 tasi ko'chalarda, 72 tasi esa tashkilotlarda jo'shlashgan.

**Jamolxon TURDIALIYEV,**  
Namangan shahar FV bo'limi 3-YOQQ  
boshlig'i, kapitan.

## JINOYATGA QO'L URMAYLIK

FVV Akademiyasida "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi, uning oqibatlarini, kelib chiqish sabablari hamda jinoyatlarning oldini olish" mavzusida davra suhbatini o'tadi.

Tadbirida akademiya boshlig'i general-mayor R.Haydarov, Toshkent harbiy sudi raisi J.Rahmonov, sudya yordamchisi F.Mo'minov, Toshkent harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya polkovnigi K.Ro'zmetov, Guliston harbiy prokurori adliya podpolkovnigi F.Jumayev, FVV Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik S.Giyasov, Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi bosh

inspektori adliya mayori A.Musayev, Davlat yong'in nazorati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i polkovnik O'.Muzaffarov hamda akademiya harbiy xizmatchilari ishtirok etdilar.

**Farhodjon XOJAYEV,**  
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi,  
mayor.

## "AKSILKORRUPSIYA OYLI" DOIRASIDA

Urganch shahar FV bo'limi xodimlari bilan profilaktik tushuntirish o'tkazish maqsadida, Urganch harbiy prokuraturasi tergovchisi adliya kapitani M.Qo'chqarov taklif qilinib, xodimlarga oylik davomida faol ishtirok etishlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish-

ga barcha o'z hissasini qo'shishi lozimligi yana bir bor tushuntirildi.

**Erkinboy ERNAZAROV,**  
Urganch shahar FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, leytenant.

## QURILISH OBYEKTLARIDA

Andijon viloyati FVB hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Andijon shahridagi "Business House" MCHJ tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan 12 qavatli turar-joy binosida amaliy-taktik mashq o'tkazildi.

Tadbinning asosiy maqsadi qurilish ishlari olib borilayotgan obyektlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulod-

da vaziyatlarning oldini olish, is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq baxtsiz hodisalardan ogohlantirish, shuningdek, aholini zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanishga o'rgatishdan iborat bo'ldi.

**Ulug'bek KASIMOV,**  
Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i,  
podpolkovnik.

## O'QUV SEMINAR

Namangan viloyati FVB va uning quyi tizimlarida smena boshliqlari bilan "Elektromobillarda sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish" mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.

Seminar mobaynida, ishtirokchilarga elektromobillar bilan bog'liq avariya va yong'inlarning bartaraf etishda, avariya-qutqaruv ishlarini olib borishda baxtsiz hodisalarning oldini olish va

xavfsizlik qoidalarini ta'minlash bo'yicha amalda qo'llangan eng ilg'or ish tajribasini o'rgatib, tafsilotlar yoritib berildi.

**Abdunazar SOYIBNAZAROV,**  
Namangan viloyati FVB bo'lim  
boshlig'i.

**Iskandar NURALIYEV,**  
Namangan shahar FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.

## BOZORLARDA PROFILAKTIKA

Andijon shahar FV bo'limi boshlig'i rahbarligida shahardagi "Shinam" qurilish bozorida navbatdagi nazorat-profilaktika tadbirlari tashkil etildi. Tadbirida bozor va savdo komplekslari ma'muriyati, mahalliy hokimlik va milliy gvardiya vakillari ishtirok etishdi.

Ijtimoiy soha obyektlarida ham qish mavsumini betalafot o'tkazish maqsadida olib borilayotgan tadbirlar davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida daxldor tashkilotlar bilan hamkorlikda profilaktik

tadbirlar amalga oshirildi. Mavjud ko'mir zaxirasini saqlash qoidalariga rioya qilinishi o'rganilmoqda, shu bilan birga maskan rahbarlari va ishchi-xizmatchilariga kerakli yo'riqnomalar berildi.

**Farohiddin HUSANBOEV,**  
Andijon shahar FV bo'limi kichik  
inspektori, I darajali serjant.

**Abdulaziz OTAQO'ZIEV,**  
bo'lim inspektori, kapitan.

## AMALDAGI TADBIRLAR

"Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida "NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK tasarrufidagi barcha ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida, sexlarda hamda yangi qurilayotgan obyektlarda uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Ushbu tadbirlarda ko'rgazmali qurollardan, ya'ni maxsus videoroliklar, eslatma va plakatlar, yong'in o'chirishning birlamchi vositalaridan keng foydalanilayapti.

Bundan tashqari, korxonalarining ishchi-xizmatchilari bilan yong'in xavf-

sizligi qoidalariga amal qilishlari bo'yicha yo'riqnomalar hamda yong'in sodir bo'lganda ularning harakatlanish tartib qoidalariga amal qilishlari yuzasidan tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda.

**Ma'rufjon HAYITOV,**  
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK  
Yong'in xavfsizligini ta'minlashni  
tashkil etish markazi xodimi, katta  
serjant.

## BAYROG'IMIZ — FAXRIMIZ!

Yurt bayrog'ini yov qo'lga topshirishni istamagan buyuk vatandoshimiz, yirik tasavvuf olimi, xalq qahramonini va otashnafas shoir Najmiddin Kubro uni qo'lida mahkam tutgan jon bergan edi. Dushman harchand urinmasin, uning qo'lidan bayroqni tortib olo olmay, panjalari bilan kesib oladi. Tug'ini jonidan ortiq asragan To'maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddan Manguberdi kabi o'nlab sarkardalar hayoti ham bugungi avlodga katta ibrat. Aslida Vatan bayrog'ini ko'zga surtish, uni to'rtiy qilish Vatanni sevish, uning uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lish deganidir. Bugun bayrog'imiz xalqaro maydonda jumladan, O'zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safarlari chog'ida, xalqaro

tashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko'rgazmalarida, sport musobaqalarida mustaqil Vatanimiz timsoli yorqin ifodalanmoqda.

Angren shaharidagi 4-umumta'lim maktabida, "Qamchiq" MQYOQB qutqaruv hamda avariya-qutqaruv otryadi shaxsiy tarkibi bilan, ushbu sanaga bag'ishlab, "Bayrog'imiz — faxrimiz" mavzusida tadbir o'tkazildi.

Tadbirida boshqarma xodimlari va qutqaruvchilari ishtirok etdilar.

So'zga chiqqanlar milliy ramzimiz xususida o'z fikr-mulohazalarini to'liqlanib bayon etdilar.

**H.BOBONOV,**  
"Qamchiq" Maxsus qidiruv,  
yong'in-qutqaruv boshqarmasi  
boshlig'i, polkovnik.

## ELEKTROMOBILLARDA YONG'IN XAVFSIZLIGI

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tinglovchilarga elektromobillarda sodir bo'lgan yong'inlarning bartaraf etishda to'g'ri harakatlanishlari va barataraf etish vaqtida oldindan sodir etilgan xato va kamchiliklarini takrorlamasliklari bo'yicha o'quv seminar mashg'uloti o'tkazildi.

Unda tinglovchilarga elektromobillarda sodir bo'lgan yong'inlarning o'chirish bo'yicha tavsiyalar, ularni

identifikatsiyalash, harakatsizlantirish, ko'tarish, barqarorlashtirish, buksirlash, tashish, saqlash, suvda cho'kgan avtomobilni olib chiqish, termik tezlashuvini bartaraf etish va yong'inni o'chirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Voris AMONILLOYEV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va  
malaka oshirish markazi siki  
o'qituvchisi, katta leytenant.

## KO'MAK BERILMOQDA

Chinoz tumanidagi korxonada va tashkilot rahbarlari o'zlariga birlashtirilgan kam ta'minlangan oilalarning yashash sharoitlari va bandligi bo'yicha o'rganish ishlarini olib bormoqdalar. Tuman FV bo'limiga birlashtirilgan kambag'al oilalarning ijtimoiy va oilaviy sharoitlarini o'rganish davomida "Rasulobod" mahallasida istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaroning 2 nafar

farzandi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tassarufidagi "JASMINA" nomli oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga imtiyoz asosida joylashtirildi. Bu kabi amaliy ko'maklar davom ettirilmoqda.

**A.QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.

## TUSHUNTIRISH ISHLARI

"Yong'in xavfsizligi oyligi" munosabati bilan Chinoz tumani FV bo'limi tomonidan tuman hududida mavjud ijtimoiy soha obyektlari, odamlar ommaviy bo'ladigan bozor va savdo komplekslari, tadbirkorlik subyektlari, ko'p qavatli turar-joylari hamda yakka tartibdagi aholi yashash xonadonlarida fuqarolar bilan keng qamrovli profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Profilaktik tadbirlar davomida qish mavsumida fuqarolar tomonidan no-

soz qo'lbo'la usulda yasalgan gaz va elektr jihozlaridan foydalanish turli xildagi yong'inlar, is gazidan zaharlanish hamda chaqnash bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligi to'g'risida fuqarolarga tushuntirishlar berildi.

**Azizbek QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.

## MARD INSON



Polkovnik Ismoil Sharipov Toshkent shahar, Sergeli tumani, Sergeli ko'chasi, Sanoat zonasi tikuv sexida 2020-yil 10-yanvar kuni yuzaga kelgan 1000 m<sup>2</sup> hajmdagi yong'in oqibatlarini bartaraf etishga bevosita rahbarlik qilgan.

Shuningdek, Toshkent viloyati Angren shahridagi yangi Angren GESning tom qismida 2020-yil 30-yanvar kuni sodir bo'lgan yong'inni hamda 2020-yil 14-mart kuni Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Foziltepa ko'chasida avtoservis binosida gaz chaqnashi sabab yuzaga kelgan avariya oqibatlarini bartaraf etishga bosh-qosh bo'lgan.

lashgan "Koreya va O'zbekiston GRD" qo'shma korxonasida toypaxtalar va qog'oz ishlab chiqarish sexida 1000 m<sup>2</sup> hajmda sodir bo'lgan kuchli yong'in oqibatlarini bartaraf etishda bevosita rahbarlik qilgani e'tiborga molik.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tmoqchimizki, Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi qutqaruvchilari xalqaro tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelmoqdalar. Aslini olganda, hech bir mamlakat favqulodda vaziyatlar xurujidan kafolatlangan emas. Turkiya davlatida 2023-yilning 6-fevral kuni sodir bo'lgan kuchli yer

fidokorlik" nishoni bilan munosib taqdirlangani kishida faxr hissini uyg'otadi.

Bundan tashqari, yurtimizda davom etayotgan "Obod qishloq" dasturi bo'yicha olib borilayotgan ishlarda, Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida Orolbo'yi hududlarini obodonlashtirish tadbirlarda, Jizzax va Toshkent viloyatlari hamda poytaxtimizda amalga oshirilayotgan "Obod mahalla" tadbirlarida vazirlik shaxsiy tarkibi bilan birgalikda qatnashib kelmoqda. Shu bilan birga jamoat ishlarida ham ancha faollik ko'rsatib, hamkasblariga o'rnak bo'lmoqda.

Polkovnik Ismoil Sharipov sermulo-haza, sofdil harbiy xizmatchi. O'z kasbining bilimdoni, yetuk mutaxassisi sifatida jonbozlik ko'rsatib, katta jamoaga rahbarlik qilib kelmoqda. Vazirlik rahbariyatining buyruq hamda ko'rsatmalarini so'zsiz, o'z vaqtida bajarilishiga jiddiy e'tibor beradi, ichki tartib-qoidalarga qat'iy amal qiladigan xodim sifatida o'zini ko'rsatib kelmoqda. U rahbarlik faoliyatini qat'iyat bilan olib boradi, shu bilan birga o'z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qila olish salohiyatiga ega. Qahramonimiz ko'p yillik xizmat faoliyati mobaynida yuzlab favqulodda vaziyatlarga rahbarlik qilgan va o'zining yetuk mutaxassisligini amaliyotda isbotlagan. Jamoat ishlarida bevosita ishtirok etib, vazirlik rahbariyati va shaxsiy tarkib orasida ti-



Hammaning xabari bor. 2020-yil 1-may kuni Sirdaryo viloyatida joylashgan "Sardoba" suv ombori dambasining buzilishi ko'pchilikni sarosimaga solib qo'ygani rost. Ro'y bergan texnogen ofat natijasida ko'pgina uy-joylar suv ostida qolib, aholi anchagina jabr ko'rdi. FVVning muhim bo'g'ini sifatida astoydil faoliyat ko'rsatib kelayotgan Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi boshlig'i polkovnik Ismoil Sharipov boshchiligidagi shaxsiy tarkib yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarida kechayu kunduz faollik ko'rsatib, xayrli yumushlarni sidqidildan ado etganini hech kim, hech qachon unutmasa kerak.

"Falokat oyoq ostida", deyдилar. Ba'zida kutilgan-kutilmagan hodisalar ham uchrab turadi. Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani hududida joy-

silkinishi respublikamiz rahbariyatini befarq qoldirmadi. Yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish maqsadida markaz qutqaruvchilaridan bir guruhi ushbu davlatga xizmat safariga jalb etilgandi. O'zbekistonlik xaloskorlar qidiruv-qutqaruv ishlariga sidqidildan yondashib, vayronalar ostida qolgan insonlarning hayotini saqlab qolishga astoydil harakat qilishdi. Qutqaruvchilarning turk birodalarimizga ko'rsatgan beg'araz yordami dunyo hamjamiyati e'tiboriga tushganini mamnuniyat bilan eslash joiz.

Turkiyada yuz bergan zilzila oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan xorijiy davlatlarning qidiruv-qutqaruv guruhlar vakillari, jumladan, Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi boshlig'i polkovnik Ismoil Sharipov Turkiya hukumati tomonidan "Oliy



nimsiz mehnati va izlanuvchanligi bilan obro'-e'tibor qozonmoqda. Shu bilan birga, safdoshlari orasida o'zining xizmatdagi yutuqlari bilan ajralib turadi.

– Ustozimiz polkovnik Ismoil Sharipov o'z sohasining ustasi bo'lib, katta hayotiy tajribaga ega inson. Hayotning

turfa sinovlariga matonat va jasorat bilan bardosh berib, harbiy xizmatda toblangan tajribali mutaxassis sifatida bilaman. Turkiya davlatida 2023-yilning 6-fevral kuni sodir bo'lgan kuchli zilzildan keyin markazimiz xaloskorlari qidiruv-qutqaruv ishlarida faollik ko'rsatishdi. Markazimiz boshlig'i rahbarligida olib borilgan qidiruv-qutqaruv ishlarini sifatli va samarali amalga oshirilganiga ko'pgina davlat vakillari qatorida turk birodalarimiz ham qoyil qolishdi, – deydi markaz yo'riqchi-qutqaruvchisi, kichik serjant Bobur Muhiddinov.

Yaxshi odob, namunali xulq – insonning go'zal ziynati. O'z kasbiga sodiq, fidoyi kishilarning suratida ham, siyratida ham buyuk insoniylik zohir. Ana shunday ezgu xislatlar maqolamiz qahramoni Ismoil Sharipovda ham mujassam, desak aslo xato qilmagan bo'lamiz.

Polkovnik Ismoil Sharipov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 24-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga



ko'ra, "Mardlik" ordeni bilan munosib taqdirlangan.

Bundan tashqari, vazirlik rahbariyati va boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan berilgan diplom va faxriy yorliqlarning hisobi yo'q.

Maqolamiz yakunida ma'lumot sifatida shu ham alohida ta'kidlamoqchimizki, hozirgi kunda faoliyat ko'rsatib kelayotgan Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi bundan roppa-rosa 35 yil ilgari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida qoshidagi Favqulodda vaziyatlar komissiyasi tasarrufida bo'lib, Davlat sport qo'mitasi, Qizil Yarim Oy jamiyati ta'asischiligidagi 1989-yilning 28-oktabrida tashkil etilgan. 1996-yilning mart oyidan boshlab, 2020-yilning yanvarigacha Tez harakat qiluvchi respublika ko'p tarmoqli markazi (THQRKTM) faoliyat ko'rsatib kelgan.

Darhaqiqat, "Mardlik" ordeni faqat mard insonlargagina nasib etadi. Yuk-sak orden sohibi Ismoil Sharipov ham chinakam tanti, mard insonlardan biri.

FVVning ajralmas bo'g'ini sifatida savobli va xayrli yumushlarni amalga oshirib kelayotgan xaloskorlar markazining shonli 35 yilligi arafasida polkovnik Ismoil Sharipovning davlatimiz mukofoti bilan taqdirlanishida ham qandaydir uyg'unlik, ajib bir hikmat bordek nazaramda.

Mukofot muborak, Ismoiljon!

**Azamat SUYUNOV,**  
O'zbekiston Yozuvchilar va  
Jumalistlar uyushmalari a'zosi.

Namangan viloyati FVB shaharsozlik sohasida profilaktika bo'limi xodimlari tomonidan bunyod etilayotgan har bir bino-inshootlar qurilishining texnika va yong'in xavfsizligi qoida talablariga to'la javob berish salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## ZAMONAVIY BINO-INSHOOTLAR



Bugungi kunda viloyatning 432 ta qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilanib, ularning holati, bajarilgan yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid tadbirlar-

ning sifati, ularning amaldagi me'yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda bajarilayotganligi bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Obyektlarda qurilayotgan bino-inshootlarning foydalanishga topshirilgunga qadar yong'inga qarshi tadbirlarning bajarilayotganligi nazoratga olingan.

**Hamidullo YULDASHYEV,**  
Namangan viloyati FVB  
bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

## O'Z UYINGNI – O'ZING ASRA!

Maishiy xizmatda ishlatish qonun-qoidalarini yaxshi bilmasdan yoki bilgan holda ham unga rioya qilmayotgan xonadonlarda afsuski yong'inlar kelib chiqmoqda. Bunday holatlarda sarosimaga tushgan ko'plab uy egalari o't o'chiruvchilarni chaqirishni o'rniga, o'zlarining kuchlariga ishonib, vaqtni o'tkazib yuboradilar. Vaholanki, tushkunlik oqibatida yong'in kamayib qolmaydi va tezlik bilan qo'shni xonadonlarga tom orqali o'tib ketadi. Natijada, bir talafot boshqasiga, yanada kattarog'iga

aylanib, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida nizo keltirib chiqaradi. Sodir etilayotgan yong'inlar bilimsizlik oqibatida sodir etilmoqda, desak yanglishmagan bo'lamiz. Gaz yoki elektr uskunalari loqaydlik bilan ishlatish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**Z. MALIKOV,**  
FVV FV va YOX ITI bo'lim  
katta ilmiy xodimi.  
**J. ZOKIROV,**  
FVV FV va YOX ITI bo'lim  
katta texnigi.

## BANNERLAR O'RNATILDI

Bu bo'yicha, "Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi xodimlari tomonidan, A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil va "Angren-Pop" elektrlashtirilgan temir yo'lining "Qamchiq" dovoni qismidan o'tgan "Chinor", "Chet-suv", "Ko'ksaroy" va "Rezak" aholi yashash punktlarida, kuz-qish mavsumiga tayyorlik ko'rish, aholi o'rtasida tabiiy va is gazidan zaharlanish hamda yong'inlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan tizimli profilaktik tadbirlar tashkil etilib, uyma-uy yurgan holda targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmog'ida.

Shuningdek, boshqar-ma ma'muriy binosi hamda navbatchilik maskanlariga "Yong'in xavfsizligi oyli"ni targ'ib qiluvchi, dovon hududidagi umumiy ovqatlanish shoxobchalariga bannerlar o'rnatildi.

Bundan tashqari, 4000 ta kichik xajmdagi vizit eslatmalar tayyorlanib, "Chinor" hamda "Sherobod" postlarida haydovchilar va fuqarolarga tarqatilib oylikni keng targ'ib qilish ishlari davom etmoqda.

**F.DADOMATOV**  
"Qamchiq" MQYOQB kichik  
inspektori, kichik serjant.

## DOVONDAGI HARAKAT

"Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasining shaxsiy tarkibi Toshkent va Namangan viloyatidagi "Chinor" va "Sherobod" YPX maskanlarida doimiy nazorat-profilaktik reydtadbirlarini o'tkazmoqda.

Bugungi kunda dovon orqali 9 turdagi xavfli yuk tashuvchi transport vositalarining qatnovi amalga oshirilmoqda.

Har bir xavfli yuk tashuvchi avtotransport haydovchilari bilan amalga oshirilayotgan profilaktik suhbatlar, kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnologiyadagi favqulodda vaziyatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

**R.XOLMATOV**  
"Qamchiq" MQYOQB bo'linma  
boshlig'i, leytenant.

## IMKONIYAT DARAJASI O'RGANILDI

Jahonda va yurtimizda sodir bo'layotgan yong'inlarning aksariyati kabel liniyalarida sodir bo'ladigan avariya holatlarini natijasida sodir bo'lmoqda.

Kabellarni yong'indan ishonchli himoya qilishning bir necha usullari mavjud. Eng ishonchli usullaridan biri – yong'inga chidamli kanallardan foydalanish. Qattiq yong'inga chidamli quti kabel liniyasini tashqi tomondan yong'indan himoya qilish imkonini beradi, shuningdek, quti ichidagi qisqa tutashuv natijasida alanganish xosil bo'lganida, yong'inni rivojlanishini cheklaydi. Kabel kanallari yordamida yong'indan himoya qilish yong'in yoki portlash xavfi yuqori bo'lgan obyektlar uchun, masalan, kimyo zavodlarida, yonuvchan suyuqliklar va gazlarni saqlash, ishlatish bilan

bog'liq korxonalar, energiya obyektlari uchun dolzarbdir. Kabel qutisidan yong'inga qarshi himoya sifatida foydalanilganda, ularga texnik xizmat ko'rsatish imkoniyati saqlanib qoladi. Qutini yig'ish tezligi, strukturaning chidamliligi va estetik ko'rinishi yong'indan himoya qilishning ushbu usulini sanoat va fuqarolik qurilish obyektlarida keng qo'llash imkonini beradi.

**B.MUHITDINOV,**  
FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda  
vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti  
bo'lim boshlig'i, t.f.f.d., (PhD), mayor.  
**Z.BUVARAIMOV,**  
FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda  
vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti  
bo'lim boshlig'i, t.f.f.d., (PhD), kapitan.

## ZAVODDAGI SINOV

NKMK AJga qarashli Navoiymashinasozlik zavodi ishlab chiqarish birlashmasida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi bo'lib o'tdi.

Unda tez tibbiy yordam xizmati, obyektning harbiylashtirilgan qo'riqlash xizmati, obyektida tashkil etilgan ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalari va NKMK yong'in xavfsizligi markazining mas'ul xodimlari va yong'in-qutqaruv qismining jangovar ekipajlari ishtirok etdilar.

Dastlab zavodning 1-va 2-stanoksozlik sexida shartli yong'in sodir bo'lganligi haqida NKMK yong'in xavfsizligining markaziy dispetcherlik xizmatiga sex ishchisi tomonidan ma'lum qilindi. Xabarga binoan 1-yong'in-qutqaruv qismidan yong'in haqida xabar olgan smena boshlig'i dispetcherlik xizmatidan yo'l varaqasini va korxonaning stanoksozlik sexining yong'in o'chirish tezkor varaqasini olib, 3 ta jangovar yong'in o'chirish avtomobillari bilan yo'lga chiqishdi. Shartli yong'in sodir bo'lgan manzilga yetib borgunga qadar obyektida tashkil etilgan ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasi tomonidan sex ichki qismidagi stanokda ortiqcha yuklanish sababli chaqnash sodir bo'layotganligi natijasida yong'i yuzaga kelib, sodir bo'lgan shartli yong'inni o'chirish choralari ko'rildi. Ko'p o'tmay voqea joyiga 3 ta yong'in o'chirish jangovar bo'linmalari yetib keldi.

Bo'linma sardori tomonidan obyektning ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasi boshlig'idan vaziyat to'g'risida ma'lumotlarni oldi. Shundan so'ng yong'in o'chirish rahbarligini olgan bo'linma sardori yong'inni o'rganish yuzasidan markaziy dispetcherlik xizmatiga ma'lumotlarni berib o'tdi. 1-yong'in-qutqaruv qismi rahbari tomonidan yong'in o'chirish avtomobillarini mavjud suv hovuzlariga o'rnatishni, bo'linmalarni to'liq jangovar yoyilishlariga buyruq berdi.

Qisqa vaqt oralig'ida yong'in joyida 1 nafar ishchi bexush holda yotganligi aniqlandi va qutqarilib, tez tibbiy yordam xizmati xodimlariga topshirildi.

Mashqqa jalb qilingan bo'linmalarning qolganlari sex ichida joylashgan qo'shni stanoklarga shartli yong'inni o'tib kelmasligining oldini olish maqsadida sovutish ishlarini amalga oshirdilar.

Shundan so'ng yong'in o'chog'iga ikkita "B" dastaklari berilib shartli yong'in batamom bartaraf etildi.

Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatning oldini olish maqsadida hamkorlikdagi xizmatlarning harakatlari sinovdan o'tkazildi.

**Bahodir USMONOV,**  
bo'lim boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.  
**Ma'rufjon HAYITOV,**  
"NKMK" AJ obyektlarida YOXTTE markazi  
xodimi, katta serjant.

## IS GAZIDAN EHTIYOT BO'LING!

Isitish mavsumida eng e'tiborli jihat shundaki, avvalo aholining o'zi mol-mulkini, uy-joyini yong'in xavfidan himoya qilmog'i kerak. Buning uchun yong'in xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya etish, doimo xushyor bo'lish, yosh bolalarni gaz yoqish-o'chirish ishlariga jalb etmaslik lozim. Gaz isitish qurilmalaridan va elektr asboblardan ehtiyotkorlik bilan to'g'ri foydalaning. Isitish pechlarini ishlatishdan avval

mo'rikonlarini tozalashni unutmang. Mo'rikon yaqinida quruq pichan va shunga o'xshash tez yonuvchi narsalarni bo'lishining oldini oling. Shunda yong'in xavfini kamaytirgan bo'lasiz.

**Sh.BAXRIYEV,**  
Toshkent tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i,  
leytenant.

## QOIDALARGA RIOYA ETAYLIK

Mamlakatimizda haroratning keskin pasayib ketishi aholining isitish moslamalariga nisbatan ehtiyojni sezilarli darajada oshiradi. Qayd etish joizki, bunday holatlarda texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik turli baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaradi. Asosiy xavflardan biri bu – is gazidan zaharlanishdir. Achinarlisi, aksariyat hollarda is gazi to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lmagan insonlar aynan uning qurboniga aylanishmoqda. Aytish joizki, aynan, qish mavsumida o'rtacha sodir bo'lgan yong'inning har 3 tadan bittasi isitish moslamalaridan noto'g'ri foydalanish yoki

nosoz va nostandart isitish moslamalarining ishlatilishidan kelib chiqqan bo'lib, ayanchli oqibatlarga olib kelgan.

Mavsumni betalafot o'tkazish, shuningdek, kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, gaz va havo aralashmasining chaqnashi hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish maqsadida qoidalariga rioya qilishingizni so'rab qolamiz.

**SH.XOLOV,**  
FVV FV va YOX ITI bo'lim boshlig'i, kapitan.  
**X.DJURAYEV,**  
bo'lim katta texnigi.

# KORRUPSIYASIZ FAOLIYAT – RIVOJLANISH GAROVI

**Qadimdan hokimiyat va korrupsiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Insoniyat tarixida davlatchilik taraqqiyoti bilan parallel ravishda korrupsiya ham rivojlanib boravergan. Hatto buyuk Rim saltanatining inqirozga yuz tutishi sabablaridan biri ham aynan shu qusur sabab bo'lgan. "Korrupsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "yemirilish", "buzish" ma'nosini beradi.**

Globalizatsiya, o'zaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida korrupsiya ham xalqaro miqyosga chiqdi, transchegaraviy ta'sir o'tkazish darajasiga yetdi hamda eng ommaviy va xavfli hodisalardan biriga aylandi. Korrupsiya mamlakatdagi iqtisodiy holatni zaiflashtiradi, davlat investitsiyalar samarasini, infratuzilma quvvatini pasaytiradi, soliqlardan olinadigan daromadlarni kamaytiradi, bu esa, o'z navbatida, hukumatga davlat taraqqiyoti maqsadlariga ajratiladigan xarajatlarni to'liq moliyalashtirish imkoniyatini bermaydi. Ushbu illat jamiyatda sud-huquq idoralari bo'lgan ishonchni so'ndiradi, inson huquqlari poymol bo'lishiga olib keladi, xalqaro darajada esa mamlakat obro'siga putur yetkazadi.

Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Sohaga oid mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, maxsus vakolatli Agentlik tashkil etilgan. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Korrupsiya masalasi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy global muammolardan biridir. Bu muammo har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladigan salbiy illatdir. Shuning uchun ham bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy oldi. Korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlariga davlat mulkini talon-taroj qilishlik, poraxo'rlik, firibgarlik, tovlamachilik kabi bir qator jinoyatlar kiradi. Bunday jinoyatlar iqtisodiyotni zaiflashtirib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi va fuqarolarning davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini hamda noroziligini keltirib chiqaruvchi omillar deyishimiz mumkin.

Nazariyotchi olimlar, siyosatchilar va amaliyotchilar o'rtasida korrupsiya tushunchasi to'g'risida turli-tuman fikr va mulohazalar mavjud bo'lib, ko'pchilik uni kengroq ma'noda ifodalashga harakat qiladi. Ba'zi olimlar pora evaziga sotilishning o'zini korrupsiya desa, ba'zilar korrupsiya bu keng ko'rinishdagi jinoiy uyushma, deb ta'riflaydi. Dunyoda korrupsiyaning turi ham, tavsifi ham juda ko'p. Uning kelib chiqish sabablarini o'rganish, unga qarshi kurashishning samarali yo'llarini topish bo'yicha olimlar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Bu borada turli ko'rsatkich

va raqamlar aks etgan jadvallar ham yaratilgan, o'ziga xos reytinglar tuzilgan. Hatto korrupsiyaning ildizi va yechimini topishga qaratilgan har xil formulalar ham ishlab chiqilganki, bu boradagi ishlar va izlanishlar bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda.

Adabiyotlarda korrupsiyaga shaklan har xil, mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflar beriladi. Korrupsiya muammosining tadqiqi bilan shug'ullangan amerikalik olimlar E.Benfield, M.Jonston, J.Naylarning fikricha: "Korrupsiya, bu – siyosiy arboblarning, davlat apparati xodimlarining va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhiy manfaatlari uchun boylik orttirish va o'zining ijtimoiy maqomini ko'tarish maqsadida, o'zlarining rasmiy burchlarini va davlat funksiyalarini bajarishdan bosh tortishidir", deb fikr bildirishsa, Rossiyalik olim P.Cherkasov esa "Korrupsiya, bu – jamiyat va davlatda ro'y beradigan salbiy hodisalar majmuyidir", deb fikr bildiradi.

Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu kabi tahdidlarni esda tutmog'i dardkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarning samaralaridan to'la-to'kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, korrupsiya yo'lga o'z vaqtida zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini anglash qiyin emas. Biz korrupsiya balosiga birgalikda, ahillik bilan, dadil qadamlar ila kurashmog'imiz zarur.

Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun aziz narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylaydi. Ular uchun hayot faqat puldan iborat, deb qarash fikri ustunlik qiladi. Shu bois ham ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yoru birodarlari, mahalla-ko'nyoning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi.

Shuning uchun ham aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xususan, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish orqaligina ko'zlangan natijalarga erishishimiz mumkin.

Darhaqiqat, shu o'rinda aytish lozimki, korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan G'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan. Xususan, Usmoniylar saltanatida dehqonlardan turli soliqlarni to'plashda harbiy xizmatchilar qing'irliklar sodir etardi. Bu suiiste'mol holatlarini hattoki Usmoniylar saltanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmagan. Sipohilar nimadir "uzatish" evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo'ydi, o'zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib,



amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa o'z navbatida, vazirlar timsolida ko'ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda harbiylar bilan to'qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Usmoniylar saltanatida poraxo'rlik oqibati shu bo'ldiki, qo'shinlar harbiy tayyorgarligini yo'qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag'lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi. Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko'ngildagidek natija bermagan.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan. Bozor iqtisodiyoti tizimi kushandasi, davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik, biznes hamda investitsiya rivojida shafqatsiz to'siq ham ayni shu korrupsiya hisoblanadi. Har yili o'nlab qo'shma korxonalarining ochilishi va yopilishi zamirida ana shu "ko'rinmas qo'llar" yotadi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotganining asl sabablarini ham shu xavfli illatdan izlash lozimga o'xshaydi.

Korrupsiya, birinchidan, jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi; ikkinchidan, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi jamiyatda adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi; uchinchidan, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, G'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolmoqda, bu kamchilik esa oldinga siljishimizga xalaqit beradi. Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi bilan bog'liq muammolar tahlilidan kelib chiqsak, sobiq ittifoqdan meros qolgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda hali ancha aziyat chekishga to'g'ri keladi. Jamiyatda ustuvor soha – ta'lim tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg'otish muammosi oldimizda ko'ndalang turibdi.

Oilada, bog'chada, maktabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib

bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash dardkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblaymiz. Agar o'g'rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy iroda talab qilinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparati hajmi imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi, monopoliyaga barham berilishi lozim.

To'g'ri, korrupsiyaga qarshi kurashish turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Ammo davlat xizmatida o'g'rilamaslik uchun dunyoda faqat ikkita retsept tan olinadi: 1. Shveysariya — vaqtni qisqartirish. 2. Xitoy — hayotni qisqartirish.

Albatta, mamlakatimizda ham bu illatga qarshi keskin kurashish chorolari ko'rilmog'da. Tadqiqotlar biror-bir illatga barham berishda eng samarali vosita illatning o'zi bilan emas, balki sababi bilan kurashish ekanini ko'rsatmog'da.


Aytish mumkinki, o'zbek siyosatchilari, davlat arboblari, olimlari o'rganaman desa dunyo mamlakatlarida samarali ishlar ko'plab topiladi. Misol uchun, Singapurda pora olishdan bosh tortgan amaldorlarga mukofotlar tarqatiladi. Yaponiya davlat sektori xodimlarining vijdonliligi baholab boriladi. Biz o'ziga xos bunday islohotlar tag-zaminidagi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishimiz zarur. Mamlakatda korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari "zanjiri" uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog'ozda qolib ketaveradi.

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

**Anvar QOBILOV** sahifani tayyorlanadi.

## DENGIZ TO'LQINLARI

Tinch okeanning Shimoli-G'arbiy qismidagi Peru qirg'og'ida Puerto-Chikama kichik shaharchasi joylashgan. Bu joy uning qirg'oqlarida hosil bo'ladigan o'zining dunyodagi eng uzun dengiz to'lqinlari bilan ajralib turadi.



Bunday to'lqinlarning paydo bo'lishi Peru qirg'oqlarini Janubdan Shimolga yuvib o'tadigan sovuq Peru oqimi, shuningdek, havo massalarining harakat yo'nalishi va bu joydagi qirg'oq chizig'ining topografiyasi bilan bog'liq.

Balandligi 2 metrgacha bo'lgan to'lqinlar tizib qo'yilgandek ideal tarzda bir-biriga xalaqit bermasdan va deyarli hech qachon bog'lanmasdan tepaga ko'tariladi.

1965-yilda Gavayi syorfiingchisi Chak Shipman samolyotda suv ustidan uchib o'tayotib, chap tomonidagi juda uzun to'lqinni ko'rdi. Shipman uyga qaytgach, Peru xaritalarini va mahalliy to'lqinlarning shakllanish xususiyatlarini o'rganishni boshladi. O'shandan buyon Chikama syorfiingchilarning sevimli joyi bo'lib qolgan.

Chikama to'lqini Peru qonunlari bilan himoyalangan dunyodagi birinchi to'lqin bo'ldi. Bunday hayratlanarli hodisa sodir bo'lgan joydan 1 kilometr masofada biror narsa qurish taqiqlangan. Bu to'lqin shakllanishi uchun zararli deb hisoblanadi.

San-Fransiskodagi "Oltin darvoza" ko'prigi nargi dunyoga chorlovchi ko'prik sifatida odamlarni dahshatga soladi.

## AJAL KO'PRIGI

Bu ko'prikning balandligi 66 metr bo'lib, 1937-yilda qurilgan va uch oy o'tar-o'tmas o'zining birinchi qurbonini "safar"ga jo'natgan. Uobber degan kimsa o'rtoqlari bilan bemalol ko'prik bo'ylab sayr qilib yurgan, biroq kutilmaganda hech qanday sababsiz suvga sakragan.

1973-yilga kelib o'z joniga qasd qilganlar soni 499 kishiga yetgan. Nihoyat, politsiya "sakrash"ga qasd qilgan nomzodlarni tuta boshlagan. Shu tariqa 14 kishini to'xtatib qolishga muvaffaq bo'lishgan. Politsiya har qancha urinmasin joniga qasd qilganlar kamaymagan. 1973-yilning oxiriga kelib ularning soni 1700 kishiga yetgan. O'z joniga qasd qilgan minginchi kishi 26 yoshli Erik Atkonson bo'ldi. Guvohlarning aytishicha, bu yosh yigit ko'prik o'rtasida mashinasini to'xtatgan va xotirjam ko'prik to'sinidan oshib, o'zini sovuq suv qariga tashlagan.

O'z joniga qasd qiluvchilar joyiga aylangan ko'prik hokimiyatni tashvishga solmay qo'ymagan albatta. Ko'prik to'sini oldin bir metr balandlikda bo'lsa, keyin uni bir necha marta balandroq qilib ko'tarishgan. Afsuski, bu chora ham ish bermagan. Joniga qasd qilganlar baribir ko'prikdan tashlashda davom etgan.

Xo'sh, bu ko'prikda qanday sir bor? Amerikalik parapsixologlarning boshlari qotgan. Nega, aynan, shu ko'prikdan o'tayotganda odamlar o'z joniga qasd qiladi? Olimlar haligacha bu sirning tagiga yeta olishmayapti.



## SKELETLAR QIRG'OG'I

Bu Afrikadagi Namibiya sahosining Kunen va Ugad daryolari oralig'ida joylashgan. Bu joy jumbog'i asrlardan buyon odamlarni qiziqtirib keladi.

Namibiya mamlakatiga tegishli sirli quruqlik 500 ming kilometrdan ziyod. Sayyoramizda bunday hayot nishonasi bo'lmagan joyni uchratish amrimahol. U o'zining mungli va ko'ngilda xavotir uyg'otadigan "Skeletlar qirg'og'i" nomini bejizga olmagan.

Sahroning okean qirg'og'idagi bu bo'lagi haqiqatdan odamlar va hayvonlar qoldiqlari bilan to'lib-toshgan. Osmondan olov purkayotgan quyosh ostida uzoq yillar sochilib yotgan suyaklar jazirama issiq va shamol ta'sirida aqlbovar qilmas darajada oppoq, sayqallangan. Odam suyaklarining bu quruqlikda paydo bo'lishini asrlar davomida atrofdan o'tgan kemalar tez-

tez halokatga uchragani bilan izohlanadi. Jon saqlab qolishga uringan dengizchilar cho'kayotgan kemadan, tabiiyki, qirg'oqqa intilishgan. Ammo bu yerda hayot nishonasi bo'lmaganligi, jazirama issiq haroratning kecha-yu kunduz kuzatilishidan o'limga mahkum bo'lishgan. Sahroda ozuqa ham, boshpana ham topishning sira iloji bo'lmagan.

Ammo asrimizning boshlarida bu yerga tez-tez kelib turadigan ekspeditsiya vakillari bu sir bilan bog'liq holat, kalavanning uchini topishganday bo'ldi. Gap shundaki, ular mahalliy baliqchilarning bir hikoyasini tinglab, sinchiklab o'rganishga kirishdi. Ulardan birida baliqchilar qirg'oqda bir kuni boshi tanasidan judo qilingan to'qqizta skeletni, sal narida murg'ak bola qoldig'ini topishgan. Ularning har biri ko'krigida qandaydir tilda yozilgan taxtacha bo'lgan. Afsuski, hech kim uni o'qiy olmagan.

Namibiya sahosidagi skeletlar sirini hamon olimlar ochisha olmayapti.

## GUGURT IXTIROSI

O'rta asrlarda olov yoqish uchun bir-biriga qattiq urganda o'zidan uchqun chiqaradigan chaqmoqtoshdan foydalanishgan. Undan chiqqan uchqun oson alanganadigan suyuqlik yoki xas-xashakka yo'naltirilgan. U esa uchqundan alanganib ketgan. Lekin bu usul ancha murakkab bo'lib, har doim ham muvaffaqiyatli chiqavermagan. Shu sababli odamlar olovsiz qolmaslik uchun imkon qadar yonib turgan o'tni o'chirib qo'yimaslikka, cho'g'ni ehtiyot qilishga harakat qilgan.

Keyinchalik quruq cho'pning uchini erigan oltingugurtga botirib olib, uning cho'pga yopishib qurishini kutishgan. Va shu tarzda hozirgi gugurtning eng birinchi ajdodini yasashgan. Kimyogar olim Bertolle olov, ya'ni yonish hodisasi aslida kimyoviy reaksiya natijasi ekanini birinchi bo'lib isbotlagan. Agar kaliy gipoxlorit (KCIO) moddasiga oltingugurt kislotasi tomizsa, bir zumda olov chiqishini ko'rsatib bergan. Bertollening bu kashfiyoti oson olov yoqish masalasiga butunlay boshqa tarafdin yondashish imkonini bergan. Ilk muvaffaqiyatlardan biri 1812-yilda Shapsel ismli kimyogarga nasib etdi. Uning gugurtlari hali ancha xom bo'lsa-da, lekin chaqmoqtoshdan ko'ra ishni ancha tezlatdi. Shapsel gugurti hozirgi gugurtlarga juda o'xshash bo'lgan. U ham quruq cho'pga oltingugurt, kinovar va Bertolle tuzi qorishmasidan iborat kallak qilingan shaklda bo'lgan. Biroq Shapsel gugurtining eng katta kamchiligi shu ediki, uni yoqish uchun Quyosh charaqlab chiqib turgan bo'lishi kerak edi.

Shapsel gugurtlari juda qimmat va boz ustiga xavfli ham edi. Uni qorong'ida yoqish uchun albatta, oltingugurt kislotasi kerak bo'lardi va bu juda kuchli kislotaga bo'lgani uchun ko'pincha olov yoqmoqchi bo'lgan odamlarga jiddiy zarar yetkazardi. Shunday vajlarga ko'ra, Shapsel

gugurti omma orasida ommalashish tugul, hatto uni sotib olishga qurbi yetadigan boylar orasida ham talabgorlar bo'lmadi. 1669-yilda nemis kimyogari Brandt tomonidan kashf etilgan oq fosfor moddasi havoda kislorod bilan juda tez reaksiyaga kirishib, bir lahzada alanga olardi. Biroq fosforning kamchiligi aynan shu – tezligi bo'lgan. Chunki kallagi fosfordan tayyorlangan gugurt chaqilganda olov kerakli joyga tutashib ulgurmay, tez o'chib qolavergan. Bu muammoni hal qilish uchun o'sha eski Shapsel usulidagi, ya'ni kallagi oltingugurt qorishmasidan iborat bo'lgan gugurt sirtiga fosfor surilgan tarzda ishlab ko'rishgan.

Fosforli gugurtning eng omadli tarkibini aynan kim o'ylab topganini aniq aytish qiyin, lekin manbalar bu borada Avstriyalik kimyogar Irini bo'lgan deb ishonishga asos bermoqda. U 1833-yil gugurt ishlab chiqarishni birgalikda yo'lga qo'yish taklifi bilan Remer ismli tadbirkorga yozgan xati hozir ham saqlanib qolgan va aynan shu fakt Irinini fosforli gugurtning eng optimal tarkibini kashf qilgan, degan fikr uchun asos bo'ladi.

Anvar QOBILOV sahifani tayyorladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyati va shaxsiy tarkibi hamda vazirlik birlashgan tahririyati ijodiy jamoasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJ ob'ektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi boshlig'i, polkovnik Xayrulla Zoirovga padari buzrukvori

**NURILLA BOBONING**

vafot etganligi munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.



## Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat*  
*kompyuterxonasida*  
*sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti – 15.00  
Topshirildi – 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

*Sahifalovchi:*  
**B.SALOHIDDINOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007 yil  
3 yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
*yakka obunachilar va*  
*tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1252  
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.  
Adadi - 9300 nusxa